


## DEMOGRAFIK HOLAT

(2020-yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumot)

Jizzax viloyatida doimiy aholisi soni 2020-yil 1-iyul holatiga 1395,5 ming kishini tashkil etib, 2020-yil boshidan 13,4 ming kishiga yoki 101,0 % ga o'sdi.




2020-yil 1-iyul  
holatiga doimiy aholisi  
soni 1395,5 kishi




2020-yil boshiga  
nisbatan 13,4 ming  
kishiga

*shundan:*



shahar aholisi soni  
654,0 ming kishi



Tirik tug'ilganlar  
soni 17,5 ming kishi



qishloq aholisi soni  
741,5 ming kishi



O'lganlar soni 2,6  
ming kishi



Nikohlar soni  
2,9 ming kishi




Ajrimlar soni  
0,5 ming kishi

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (2020-yil 1-iyul holatiga, ming kishi)

	2019-yil	2020-yil	o'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	1365,6	1395,5	102,2
Jizzax sh.	175,7	179,2	102,0
Arnasoy	45,5	46,2	101,5
Baxmal	154,1	157,6	102,3
G'allaorol	169,3	173,0	102,2
Sh. Rashidov	217,0	223,1	102,8
Do'stlik	64,7	65,9	101,9
Zomin	161,5	165,1	102,2
Zarbdor	84,6	86,9	102,7
Mirzacho'l	51,0	52,2	102,3
Zafarobod	49,3	50,1	101,6
Paxtakor	73,5	74,9	101,9
Forish	91,6	93,0	101,5
Yangiobod	27,8	28,3	101,8

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-iyul holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-iyul holatiga eng ko'p aholi soni Sh. Rashidov tumanida 223,1 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,0 %)ni va Jizzax shahrida 179,2 ming kishini (12,8 %), aksincha eng kam aholi soni Arnasoy 46,2 ming kishi (3,3 %) va Yangiobod tumanida 28,3 ming kishini (2,0 %) tashkil etdi.

## TUG'ILISH

2020-yilning yanvar-iyun oylarida 17,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,4 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 24,2 promille bo'lgan).

## Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindikpulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Baxmal tumanida (28,7 promilledan 30,0 promillega) va Zarbdor tumanida (26,5 promilledan 27,5 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish boshqa tumanlarda kuzatilmadi.

## Jizzax viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (2020-yil yanvar-iyun)

	2019-yil	2020-yil	o'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	16321	17542	107,5
Jizzax sh.	1779	2032	114,2
Arnasoy	461	497	107,8
Baxmal	2180	2342	107,4
G'allaorol	2086	2322	111,3
Sh. Rashidov	2816	2985	106,0
Do'stlik	644	727	112,9
Zomin	2093	2156	103,0
Zarbdor	1105	1183	107,1
Mirzacho'l	492	514	104,5
Zafarobod	505	554	109,7
Paxtakor	835	859	102,9
Forish	1018	1036	101,8
Yangiobod	307	335	109,1

## VAFOT ETGANLAR

2020-yilning yanvar-iyun oylarida 2,6 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 3,8 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan minus 0,1 promillega kamaydi (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 3,9 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Baxmal (4,6 promilledan 4,3 promillega), Do‘stlik (3,3 promilledan 3,0 promillega), Mirzacho‘l (3,4 promilledan 2,8 promillega), Paxtakor (3,7 promilledan 3,5 promillega) va Yangiobod (4,9 promilledan 3,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.




## VAFOT ETGANLAR

2020-yil yanvar-iyun

	Erkaklar 1,5 ming kishi	Ayollar 1,1 ming kishi	
---	-------------------------------	------------------------------	---

**Viloyat bo'yicha vafot etganlar soni**  
(2020-yil oylar bo'yicha kishida)



2020-yilning yanvar-iyun oylarida 2,6 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan erkaklar 56,8 %, ayollar 43,2 % tashkil etadi.


## Jizzax viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (2020-yil yanvar-iyun)

	2019-yil	2020-yil	o'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	2617	2622	100,2
Jizzax sh.	329	329	100,0
Arnasoy	54	63	116,7
Baxmal	352	334	94,9
G'allaorol	353	372	105,4
Sh. Rashidov	449	449	100,0
Do'stlik	105	98	93,3
Zomin	316	327	103,5
Zarbdor	133	154	115,8
Mirzacho'l	85	72	84,7
Zafarobod	75	74	98,7
Paxtakor	134	131	97,8
Forish	164	164	100,0
Yangiobod	68	55	80,9



2020-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 51,4 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,3 % i o‘simtalardan, 6,7 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,6 % i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 6,2 % i nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 1,5 % i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 18,3% i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

## Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



- Qon aylanish tizimi kasalliklaridan
- Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan
- O‘simtalardan
- Nafas olish a‘zolari kasalliklaridan
- Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan
- Yuqumli va parazitlar kasalliklardan
- Boshqa kasalliklardan


2020-yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o‘sishi 14,9 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,2 ming kishiga (2019-yilning yanvar-iyun oylarida 13,7 ming kishi bo‘lgan) ko‘paygan.



Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 181 nafarni tashkil etib, ularning 48,6 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 32,0 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 3,9 % i tug'ma anomaliyalardan, 2,2 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,7 % i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 1,1 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 10,5 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

## 1 yoshgacha vafot etgan bolalarning asosiy o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



- Perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan
- Tug'ma anomaliyalardan
- Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan
- Nafas olish a'zolari kasalliklaridan
- Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan
- Yuqumli va parazitlar kasalliklaridan
- Boshqa kasalliklardan

## NIKOH



2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlar tomonidan 2,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etdi.

## NIKOHDAN AJRALISH- LAR




2020-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,7 promilleni tashkil etdi.


### Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-iyun)



## Jizzax viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar o'sish sur'ati, foizda (2020-yil yanvar-iyun)



## Jizzax viloyati bo'yicha nikohdan ajralishlar o'sish sur'ati, foizda (2020-yil yanvar-iyun)



## MIGRATSIYA

2020-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 3,6 ming kishini, ko‘chib ketganlar soni esa 5,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1,4 ming kishi bo‘lib, 2019 yilning mos davrida minus 0,5 ming kishi bo‘lgan.



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal G‘allaorol, Forish va Zomin tumanida (minus 0,3 ming kishi).

(ming kishida)

	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun
Ko‘chib kelganlar	5,2	3,6
Ko‘chib ketganlar	5,7	5,0
Migratsiya saldosini	-0,5	-1,4

*Viloyat statistika boshqarmasi*  
*"Demografiya va mehnat*  
*statistikasi bo‘limi"*  
(72) 221-51-19  
(72) 222-81-39